XALQ DEPUTATLARI RISHTON TUMAN KENGASHI

Q A R O R I

2023 - yil 7 - avgust VI-58-92-11-158-K/23 Rishton tumani hokimligi

Rishton tumanidagi “Jaxonobod” MFY negizida yangi mahalla fuqarolar yig‘ini tashkil etish to‘g‘risida

Rishton tumanidagi «Jaxonobod» mahalla fuqarolar yig‘ini 1997 yilda tashkil etilgan bo‘lib, umumiy yer maydoni 94,3 ga, xonadonlar soni 1180 tani, oilalar soni 1200 tani, aholi soni 5620 nafarni tashkil etadi. Tarkibida bitta aholi yashash punkti *(Xasanobod)* mavjud.

Keyingi vaqitda «Jaxonobod» MFY xududida yashovchi aholi, oilalar va xonadonlar soni ortib borayotganligi, shuningdek MFY tarkibidagi Hasanobod aholi yashash punkti MFY markazidan 4-5 km uzoqlikda joylashlganligi sababli mahallani boshqaruvida, aholi muammolarini o‘z vaqtida aniqlash va hal etilishida, obodonlashtirish ishlarini lozim darajada amalga oshirishda va mahallani har tomonlama ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Yuzaga kelgan holatni inobatga olib, 21.02.23 yil kuni «Jaxonobod» MFY vakillar yig‘ilishi o‘tkazilib, yig‘ilishda «Jaxonobod» MFY ni ikkiga bo‘lish to‘g‘risida qaror qabul qilinib taaluqli xujjatlar tuman hokimiga yuborilgan. O‘z navbatida tuman hokimligi huzuridagi «Geografik obyeketlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha» tuman xududiy komissiyasi o‘zini yig‘ilishlarida ushbu masalani muhokama etgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nominio‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 48-sonli Qarori talablariga muvofiq tegishli xujjatlar rasmiylashtirilgan,

shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi tomonidan 22.06.23 yil kuni 08-04694 sondagi xatiga ilova etilib yuborilgan Kadastr agekntligi ekspert komissiyasining 2023 yil 22-iyun kungi 07714 sonli yig‘ilish Bayoni va Ekspert xulosasi olingan.

Yuqoridagilarni va sessiyada muhokama etilgan masala yuzasidan deputatlar tomonidan bildirilgan takliflarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunini 6 va 24 moddalariga muvofiq xalq deputatlari Rishton tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1.Rishton tuman hokimi maslahatchisi A.Haydarovni “Rishton tumanidagi “Jaxonobod” MFY negizida yangi mahalla fuqarolar yig‘ini tashkil etish to‘g‘risida”gi Axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.«Jaxonobod» MFY ni bo‘lish va yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inini nomlash bo‘yicha qo‘yidagilar:

-Rishton tuman «Jaxonobod» MFY vakillarining 21.02.23 yil kungi «Jaxonobod» MFY ni bo‘lish to‘g‘risida o‘tkazilgan yig‘ilish Bayoni;

-Rishton tuman hokimligi huzuridagi «Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman xududiy komissiyasi»ning 16.05.23 yil kungi yig‘ilish Bayoni;

-O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2023 yil 22-iyun kungi 07714 sonli yig‘ilish Bayoni va Ekspert xulosasi asos va ijro uchun qabul qilinsin.

3. “Jaxonobod” MFY negizida yangi mahalla fuqarolar yig‘inini tashkil etish va tashkil etilayotgan yangi mahalla fuqarolar yig‘iniga berilayotgan “Navqiron” nomi ma’qullansin.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Mustafaqulov, tuman Iqtisodiyot va Moliya bo‘limi boshlig‘i I.Djo‘rayev, tuman Ichki ishlar bo‘limi (Sh.Ergashev) va tuman Kambag‘allikni qisqartirish va Bandlik bo‘limi boshlig‘i J.Rahimovlarga, yangidan tashkil qilinayotgan “Navqiron” mahalla fuqarolar yig‘iniga belgilangan tartibda tegishli shtat birliklarini ajratish va ularni byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish, zarur moddiy-texnik baza va jihozlar bilan ta’minlash bo‘yicha aniq takliflar kiritsinlar.

5. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Mustafaqulov Kadastr Agentligi Rishton tuman bo‘limi (B.Dadajonov), tuman Qurilish bo‘limi (Sh.Abdurahmonov) tuman hokimligi (A.Haydarov), tuman Kabag‘allikni qisqartirish va Bandlik bo‘limi (J.Rahimov) va boshqa daxldor idoralar bilan birgalikda amaldagi tartibda yangi tashkil etilayotgan va nom berilgan MFYni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazasini shakllantirish, muxr va shtamplarini tayyorlab berish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

6. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (Sh.Ergashev), tuman Qurilish bo‘limi (Sh.Abdurahmonov), tuman Kambag‘allikni qisqartirish va Bandlik bo‘limi (J.Rahimov)ga, yangi tashkil etilgan va nom berilgan “Navqiron” MFY xududida yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga, MFY nomi aks ettirilgan belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish va peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida o‘rnatish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

7. Yangidan tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘ini mos ravishda hudud bo‘yicha avvaldan tegishli bo‘lgan, tuman Kengashi deputatlari va sektor rahbarlariga biriktirilgan mahallalar ro‘yxatiga kiritilsin.

8. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari A.Dehqonovga, mazkur qaror tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin va yangi tashkil etilib, nomlangan mahalla fuqarolar yig‘ini to‘g‘risidagi ma’lumotlarni OAV larida yoritib borish tavsiya etilsin.

9. Ushbu qaror ijrosini nazorati tuman hokimligi huzuridagi “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash” tuman komissiyasi (A.Haydarov) hamda Xalq deputatlari tuman Kengashining “Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi (M.Normatov) ga yuklatilsin.

Сессия раиси **Akbaraliyevich T. B.**